Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2026-yil yanvar-sentabr oylari uchun

I. Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026- yilning 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 27 332 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi[1]




Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

[1] *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar birxillashtirildi*

	2025- yil 1- oktabr holatiga, birlik	2026-yil 1- oktabr holatiga, birlik
Xorazm viloyati	**22 961**	**27 332**
Urganch sh.	4 432	5 149
Xiva sh.	1 683	1 925
Bog'ot	1 497	1 791
Gurlan	1 426	1 802
Qo'shko'pir	1 704	2 084
Urganch	2 634	3 069
Hazorasp	1 468	1 791
Tuproqqal'a	623	718
Xonqa	1 916	2 201
Xiva	1 524	1 701
Shovot	1 416	1 766
Yangiariq	1 664	2 039
Yangibozor	974	1 296

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




Iqtisodiy faoliyat turlari

II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2026- yilning yanvar-sentabr 6 012 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2026- yilning yanvar-sentabr iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1 572 ta, savdo sohasida 1 441 ta, sanoatda 966 ta hamda boshqa xizmatlarda 837 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2025- yil yanvar-sentabr oylarida, birlik	2026-yil yanvar-sentabr oylarida, birlik
Xorazm viloyati	**5 632**	**6 012**
Urganch sh.	764	863
Xiva sh.	313	403
Bog'ot	440	516
Gurlan	431	502
Qo'shko'pir	448	488
Urganch	576	586
Hazorasp	450	514
Tuproqqal'a	145	151
Xonqa	350	361
Xiva	387	387
Shovot	489	536
Yangiariq	563	431
Yangibozor	276	274

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2026- yilning yanvar-sentabr YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 71,8 % ni tashkil qilib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan 2,0 % ga pasaygan.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2026-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 12 157,9 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 37,6 % ini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026- yil yanvar- sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 11 087,7 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining

81,5 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 116,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'shko'pir (98,8 %), Shovot (96,9 %) va Xiva sh. (96,0 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2026- yil yanvar- sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 15 251,7 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 60,6 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 114,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a (94,3 %), Yangibozor (89,8 %), Qo'shko'pir (74,1 %) va Gurlan (71,9 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2026- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 24 863,4 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 89,4 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 101,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Shovot (96,7 %), Hazorasp (96,6 %), Gurlan (96,1 %) va Yangibozor (96,1 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026- yil yanvar- sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 16 158,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 95,9 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 121,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Yangiariq (99,7,%), Gurlan (99,6 %), Qo'shko'pir (99,6 %) va Shovot (98,3 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026- yil yanvar- sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 24 156,4 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 71,2 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan 112,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Gurlan (81,2 %), Yangibozor (80,7 %), Yangiariq (79,5 %), Qo'shko'pir (78,7 %) va Bog'ot (76,9 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026- yilning yanvar-sentabr kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 250,4 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 65,3 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-sentabr hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Hazorasp tumanida – 100,0 %, Yangibozor tumanida – 100,0 %, Yangiariq tumanida – 99,8 %, Bog'ot tumanida – 96,8 %, Qo'shko'pir tumanida – 87,4 % va Xiva tumanida – 82,8 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026- yilning yanvar-sentabr kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 258,5 mln AQSH dollarini yoki jami importning 64,0 % ini tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-sentabr hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Yangibozor tumanida – 100,0 %, Hazorasp tumanida – 99,9 %, Xiva tumanida – 95,7 %, Urganch tumanida – 95,2 %, Gurlan tumanida – 92,6 %, Yangiariq tumanida – 90,4 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2026- yilning yanvar-sentabr avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,5 % ni tashkil etdi. 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,1 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-sentabr avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 82,7 % ni tashkil etgan bo'lib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,5 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-sentabr avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 94,5 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,7 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-sentabr avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,7 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,3 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi




V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar- sentabrida 37,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar- sentabr 16,4 % ga yetgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2022- yilning yanvar- sentabrida 59,4 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar-sentabr 81,3 % ni tashkil qildi. O'z navbatida iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2022- yilning yanvar- sentabrida 3,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026- yilning yanvar- sentabriga kelib bu ko'rsatkich 2,3 % ga yetgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2022- yilning yanvar- sentabrida 39,5 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar- sentabr 40,4 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2022- yilning yanvar- sentabrida 57,3 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026- yilning yanvar- sentabr 58,3 % tashkil etgan. O'z navbatida iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2022- yilning yanvar- sentabrida 3,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026- yilning yanvar- sentabriga kelib 1,3 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-sentabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash

Kichik korxona va mikrofirmalarning 2026- yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini a'lo deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 23,7 % ni, qurilishda – 21,3 % ni va savdoda – 16,4 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini yaxshi deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi xizmatlarda – 67,2 % ni, sanoatda – 64,8 % ni va savdoda – 63,6 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini o'rtacha deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilish sohasida – 21,2 % ni, xizmatlarda – 20,6 % ni va savdoda – 19,3 ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini yomon deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilish sohasida – 4,4 % ni, sanoatda – 3,1 % ni va xizmatlarda – 2,3 ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf
https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf
https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoqlar-bo-yicha-ulushi.pdf

Tayyorlash uchun mas'ul:	**Ijrochi:**	**Manzil:**
Tadbirkorlik subyektlari kuzatuvi statistikasi bo'limi	T. Xodjaniyazov (62) 227-77-88 (90-30)	220100, Urganch sh., Al-Xorazmiy ko'chasi, 93-uy